



Received: October 14, 2023
Accepted: December 23, 2023
Available online: December 25, 2023

Abduraxim Nasirov

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Ilkhom Khalimzoda

Madaniyatlararo aloqa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
Yuvyaskyulya universiteti
Yuvyaskyulya, Finlyandiya

FINLANDIYA DAVLATINING TA'LIMDAGI O'ZIGA XOS TAJRIBASI (KO'P TILLILIK)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Finlyandiya ta'lim tizimini maktabgacha ta'limdan tortib to oliydan keyingi ta'limgacha o'rganishni o'z ichiga oladi. Biz turli jihatlarini, jumladan, o'quv dasturlarini, kesishgan va ko'ndalang kompetensiyalarni rivojlantirishni va talabalarni faqat imtihonlarga emas, balki hayotga tayyorlashga e'tibor qaratilishini tahlil qildik. "Sekin o'rganuvchilar"ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni ta'kidlaymiz va til o'rgatish amaliyotini o'rgananimizni bayon qildik. Bundan tashqari, biz Yuvyaskyulya va Xelsinki universitetlaridagi oliy ta'lim jarayonini, kuzatuvlar va ekspert taqdimotlaridan olingan ma'lumotlarni tasvirlab beramiz. Ta'lim uzluksizligining har bir bosqichida til o'rgatish va ko'p tillilik masalasiga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risidagi farmonlariga muvofiq Finlyandiyaning ibratli tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PQ-300 -sonli qarorda oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining xorijda malakasini oshirish vakolati belgilab qo'yilib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan batafsil rejalar belgilab berilgan. Ushbu ko'rsatmalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston davlat jahon

Abduraxim Nasirov

Professor, Doctor of Sciences in Philology (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: a.nasirov@uzswlu.uz

Ilkhom Khalimzoda

Doctor of Philosophy (PhD) in Communication
Sciences
University of Jyväskylä
Jyväskylä, Finland
E-mail: khalimzodai@gmail.com

A UNIQUE EXPERIENCE OF FINLAND IN THE AREA OF EDUCATION (MULTILINGUALISM)

ABSTRACT

This article is a comprehensive study of the Finnish education system, from preschool to postgraduate education. We examine various aspects of the system including curricula, the development of intersectional and transversal competences, and efforts to prepare students for life beyond exams. We discuss initiatives aimed at supporting students who may need extra help and investigate language teaching practices. Furthermore, based on expert presentations and observations, we describe the higher education process at the Universities of Jyväskylä and Helsinki. Throughout each stage of the educational continuum, we give particular attention to the issue of language teaching and multilingualism.

In line with the education system reform decreed by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, there is a significant focus on studying and implementing Finland's exemplary practices. On September 11, 2023, Resolution No. PD-300 was issued, which mandates higher education faculty to enhance their skills abroad. The Ministry of Higher Education, Science, and Innovation has outlined detailed plans to execute these directives. Uzbekistan State World Languages University has partnered with the International Nordic University in Tashkent to achieve this goal. This collaboration has facilitated a comprehensive training program for

tillari universiteti (O'zDJTU) va Toshkentdagi Xalqaro Nordik universiteti o'rtasida strategik hamkorlik o'rnatildi. Ushbu hamkorlik O'zDJTU professor-o'qituvchilari uchun Finlyandiya ta'lim tizimi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va tajriba almashishni rag'batlantirishga qaratilgan keng qamrovli o'quv dasturini amalga oshirishga yordam berdi, bu esa Finlyandiyaning ta'lim amaliyotidan qimmatli tushunchalarni olish imkoniyatini berdi.

Kuzatishlarimiz va soha mutaxassislari bilan o'zaro munosabatlarimizdan kelib chiqib, biz asosiy xulosalarni taqdim etamiz. Shunisi e'tiborga loyiqki, Finlyandiyaning ta'lim siyosati bilimga asoslangan jamiyatni qo'llab-quvvatlayotganini, ta'limda tenglikka sodiqligini va mahalliy hokimiyat organlariga berilgan yuqori darajadagi avtonomiyani namoyish etadi. Bundan tashqari, tenglik tamoyili barcha davlat maktablarining yagona maqomida o'z aksini topadi, bu esa talabalar turar joylariga yaqinlik asosida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bizning maqolamiz ushbu topilmalarning oqibatlarini haqida keyingi muhokamalar va mulohazalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: fin ta'limi, o'quv jarayoni, o'quv dasturlari, xorijiy tilning o'qitilishi, ko'ptillilik, fin va shved tillari, malaka oshirish, ko'nikma, kompetensiyalar, kutubxona, ilmiy izlanish.

KIRISH

Amerikalik pedagog, yozuvchi, notiq, 2 yil Xelsinki maktabida faoliyat yuritgan Timoti Uokerning "Finlyandiya ta'lim mo'jizasi" nomli kitobining so'zboshida finlyandiyalik professor, Finlyandiya ta'lim tizimi islohotchisi Pasi Salberg fin ta'limini tatbiq etmoqchi bo'lganlarga Ehtiyot bo'ling! Fin ta'limini mustaqil tarzda takrorlashga harakat qilmang, deb yozadi [Uoker, 2023]. Boisi, Finlyandiya ta'limi 2000-yilda – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)) tomonidan o'tkazilgan PISA tadqiqotida 32ta davlat orasida yuqori natijalarni qo'lga kiritishi natijasida, dunyoni lol qoldirganligi va uning ortidan juda ko'plab davlatlar Finlyandiya tajribasini o'rganishni xohlagan holda ularga murojaat qilganligidadir [Nasirov, 2019]. Haqiqatdan ham tahlillarga e'tibor qaratilsa, finlyandiyalik 15 yoshli o'quvchilar ushbu tadqiqotlarda so'nggi 20 yil davomida o'z tengdoshlari orasida matematika, o'qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatib keladi [OECD, 2019].

Ta'kidlash joizki, Finlyandiya davlatining Tayanch ta'lim to'g'risidagi Qonunida (1998-yil) ta'lim tizimining uchta asosiy maqsadi alohida belgilab berilgan: 1. Ta'lim oluvchilarga hayotiy zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish; 2. Jamiyatda shaxsiy

UzSWLU professors and teachers. The training program aims to deepen their understanding of the Finnish education system and foster an exchange of expertise, enabling valuable insights to be gleaned from Finland's educational practices.

Based on our observations and interactions with experts, we have drawn some important conclusions. Finland's education policy aims to create a knowledge-based society, promote equality in education, and grant a high degree of autonomy to local authorities. Additionally, the egalitarian values are reflected in the equal status of all public schools, which makes education accessible to all students based on their proximity to their residence. We have discussed the implications of these findings in our article and included some reflections on the matter.

Key words: Finnish education, educational process, curricula, foreign language teaching, multilingualism, Finnish and Swedish languages, professional development, skills, competencies, library, scientific research.

rivojlanish va o'zaro tenglik mezonini targ'ib qilish; 3. Butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida erkinlik (akademik va moliyaviy) adolatlilikni ta'minlash [Finland's Basic Education Act, 1998].

Shuningdek, Finlyandiya ta'lim tizimi ikki asosiy bosqichli ma'muriy tuzilishga ega: Ta'lim va madaniyat vazirligi hamda vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, ammo o'z faoliyatida mustaqil bo'lgan Milliy ta'lim agentligi. Ushbu agentlik maktabgacha va maktab ta'limini, vazirlik esa oliy ta'lim tizimini boshqarish vakolatiga egadir.

Finlyandiya ta'lim siyosatida mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish jarayonini o'tgan asrning 70-yillaridan 2000-yillarga qadar bo'lgan davrda eng muhim o'zgarishlardan biri sifatida ta'kidlash o'rinli.

Barcha davlat maktablari bir xil mavqega ega, o'quvchilar uylari yaqinidagi maktabga borishadi. Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil, umumiy o'rta ta'lim esa 3 yil davom etadi. 9-sinf bitiruvchilari o'qishni ta'limning yuqori sinfli maktablarda davom ettiradi. Litseylar xuddi O'zbekistondagi singari OTMlarga bog'langan, u yerda o'qish 3 yil davom etadi. Kasb-texnika maktablarida esa o'qish 2-3 yil davom etadi. O'quvchilarga boshlang'ich sinflarda baho qo'yilmaydi, yuqori sinflarda esa 4-10 ballik tizimi asosida baholanadi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir muhim tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari mavjud emas.

Finlyandiyada ko'p tillilik masalasiga juda ijobiy yondashilgan. Finlar shved tilini, shvedlar fin tilini o'rganishadi, boshlang'ich sinfdan ingliz tilini, yana fransuz, nemis, rus kabi tillarni ham o'rganishadi. Ko'p tillilik til o'rganuvchilarga tillarni qiyoslab o'rganish imkoniyatini berishdan tashqari, bir necha tillar leksik va grammatik jihatdan bir-biriga yaqin hamda o'xshashliklarga ega, shu bois bu omil til o'rganuvchilarga yangi tilni o'rganishda ko'plab qulayliklar yaratadi. Misol uchun, rus olimi Y.A. Kartushina bu haqida "Globallashuv davrida yuz beradigan ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi o'zgarishlar til, uning qo'llanilishi, faoliyati va tarqalishidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin emas. Diskursivlik, "hayotga sho'ng'ish" tilni ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy xarakterdagi toifalar bilan bog'laydi" deb yozadi [Kartushina, 2017]. Shuningdek, mazkur mavzu doirasida Hukumat qarorlari [O'zRes VM 124-son qarori, 2013], xalqaro dasturlar [Council of Europe, 1995] va K.X. Xanazarov [Khanazarov, 2007], X.Daminov, Z.Qosimova [Daminov & Qosimova, 2020], A.Nasirov [Nasirov, 2020], O.Qo'ysinov [Qo'ysinov & Nasirov, 2021], F.Hamroyeva [Qo'ysinov & Hamroyeva, 2023], A.G'aniyev [G'aniyev, 2023] kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar amaldagi muhim natijalar bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim

Biz tashrif buyurgan Yuvyaskyulya hududidagi Xuakkamaki davlat maktabgacha ta'lim muassasasi 150 nafar 9 oydan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olgan. MTM direktori janob Jarno Kinnunenning bergan ma'lumotlariga ko'ra, hududda 26ta MTM mavjud, qamrov 96%. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi, oilaviy

bog'cha, 3-4 soatlik qisqa muddatli va xususiy yoki nodavlat shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud. Ota-ona agar farzandlariga o'zlari qarashni xohlasa davlat tomonidan 3 yoshgacha pul to'lab beriladi. MTMLarda ota-onalar badali 289 yevroni tashkil etadi. Ushbu narx bolalarga MTMLarida qabul ko'rsatilgan xizmat uchun ketgan mablag'ning 14%ni tashkil etadi. Oila daromadi yuqori bo'lmagan ota-onalar yoki talabalar ushbu badal to'lovidan ozod etilgan. Moliyalashtirish mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi. Bizning e'tiborimizni tortgan yana bir jihat shu bo'ldiki, 3 yoshgacha bo'lgan davrda 4 nafar tarbiyalanuvchiga 1 nafar, 3-6 yoshda esa 7 nafar tarbiyalanuvchiga 1 nafar pedagog va tarbiyachi birlashtirilgan ekan. Bolalarga pedagog, tarbiyachi, logoped, psixolog, musiqachi, tarbiyachi yordamchisi xizmat ko'rsatadi. Mashg'ulotlar ilk MTM davridan boshlab hayotga o'rgatishga qaratilgan. Bolalarni yangi narsalarni tanitishga, atrofni anglashga, ijodkorlikka, tashabbuskorlik, o'z harakati uchun o'zi javob berish kabi ko'nikmalar o'rta va katta guruhlarda o'rgatilmoqda. MTMLarida bolalarga har kuni baland ovozda fin yoki shved tilida kitob o'qib beriladi, bu ularning yoshlikdan tinglab tushunishga, biror bir hikoya yoki ertakning asosiy mazmunini anglashga o'rgatadi.

Bolalar -15 sovuqda ham tarbiyachilari bilan tashqarida, toza havoda, qorda o'ynashadi, ularga sovuq o'tkazmaydigan maxsus formalar kiydiriladi. MTM binosining moddiy texnik bazasi, xonalarda bolalar uchun yaratilgan sharoitlar o'ta yuqori darajada, bolalar va kattalar oyoq kiyimsiz, noskida yurishadi. 6-7 yoshda maktabga tayyorlash 1 yil majburiy hisoblanib, o'zlarining MTMLarida yoki yaqin hududdagi maktablarda tashkil etiladi. Ushbu 1 yillik majburiy maktabgacha tayyorlov bosqichi bepul. Finlyandiyada bola shaxsini rivojlantirish uchun barcha bolalarni maktabgacha ta'limga tortish va individual dasturlarni joriy etish, bunda gender tengligiga rioya qilish kabi masalalarga katta e'tibor qaratishni qayd etgan [Sormunen et al., 2012]. Bolalar 1 yillik majburiy maktabga tayyorlash davridanoq ko'p tillilik muhitiga o'yinlar orqali kirishishadi, ona tili, fin yoki shved tillarida tarbiya beriladi, tarbiyachilar ingliz tilini ham bilishadi. O'zbekistonda ham bu qarashlar doirasida MTTga qamrovga katta e'tibor qaratilib, chet tillarini shu davrda o'rgatish bo'yicha dasturlar takomillashtirilmoqda.

Boshlang'ich maktab

Yuvyaskyulya hududida joylashgan Makelenmaen koulu boshlang'ich maktabi. Finlyandiyada bolalar maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi va boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi, 3-sinf gacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017-yildan beri aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchka ishlatishdan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi. Maktablarda haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratilmaydi, tabaqalashtirish yo'q, o'zlashtirishi past yoki orqada qoladigan o'quvchiga e'tibor katta, yordamchi o'qituvchilar ular bilan maxsus shug'ullanishadi.

Boshlang'ich maktabda ona tili va adabiyoti, ya'ni fin tili yoki shved tili, sami tili, sigan tili 1-2-sinflarda haftasiga 14 soatdan, 3-6-sinflarda 18 soatdan o'qitiladi.

Fin ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarda til o'rganish qobiliyatini rivojlantirish erta bolalikdan boshlanadi va bu jarayon butun hayotida davom etadi. Til o'rganish bilan shug'ullanish uyda, maktabda va maktabdan tashqari vaqtlarda rivojlanadi. Maktabda til o'qitishning asosiy tamoyili – turli vaziyatlarda tildan foydalanishga o'rgatish hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda ingliz tili (A2) 3-sinfдан boshlab barcha maktablarda (12 soat) taklif etiladi, chet tili sifatida boshqa tilni ham tanlash mumkin. Maktabda A2 darajali o'quvchilar guruhlarini tuzish uchun kamida 12 nafar o'quvchi ushbu tilni tanlashi lozim. Ba'zan, tanlagan chet tili fransuz, nemis yoki boshqa til bo'lsa-yu, 12 nafar o'quvchi yig'ilmasa o'qiyotgan maktabni o'zgartirishga to'g'ri keladi. O'rta ta'limga o'tganda 7-sinfдан boshlab yana bir xorijiy til (B2 daraja) o'qitiladi (4 soat).

Maktab binosi, jihozlanishi va xonalarda mebellardan tortib, o'quv jarayoni uchun kerak bo'lgan imkoniyatlar yuqori darajada. O'quvchilar uchun maxsus maktab formasi talabi mavjud emas, ular sinfda oyoq kiyimisiz, turlicha joylashtirilgan stullarda erkin joylashgan holda darslarda qatnashadilar. Mehnat, musiqa va san'at xonalaridagi dars jarayoni maxsus vositalar, asbob uskunalari, to'liq elektron doskalar va IT texnologiyalari bilan jihozlangani, barcha fanlardan darslarning elektron doskalar va platformalardan samarali foydalangan holda olib borilayotganligi ta'limni sifatli tashkil etishga xizmat qiladi va informatika fanining alohida fan sifatida o'qitilishiga ehtiyoj qoldirmaydi. Maktabda 20 nafarga yaqin o'quvchilarning inklyuziv ta'limga tortilgani hamda ular uchun barcha sharoitlar yaratilgani, bir nechta o'qituvchining bolalar bilan individual tarzda shug'ullanayotgani, fin ta'limidagi biz uchun o'rganish kerak bo'lgan jihatlari mavjudligidan dalolat.

Maktabda o'qituvchini ishga qabul qilish uchun onlayn platforma orqali hujjat topshiriladi, nomzodlar o'rganilib, suhbat o'tkaziladi va maktab ma'muriyati tomonidan tanlanadi. T.Uokerning ta'kidlashicha, fin maktablaridagi muvaffaqiyatning zahirida juda oddiy tamoyil – o'quv jarayonlarida quvonch mavjudligida ekan. Qisqa o'quv kuni, yengil uy vazifalari va kam standartlashtirilgan testlar samarali ta'lim tizimining tashqi ko'rinishi. Shu bilan birga o'qituvchilarning salohiyati va siddiqdildan dars o'tishi asosiy tamoyildir [Uoker, 2023].

Umumiy o'rta ta'lim

Yuvyaskyulyadagi Kuokkolan Yhtenaiskoulu umumiy o'rta ta'lim maktabi. Ushbu maktabda o'quvchilar 7-, 8- va 9-sinfda 3 yil ta'lim olishadi. Maktab direktori Markkhu Juholaning ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya ta'limining kuchli jihati maktab ta'lim tizimi hisoblanadi.

Fin ta'limini dunyoga tanitgan omillardan biri bu Programme for International Student Assessment (PISA) – Bilimni baholashning xalqaro dasturi hisoblanadi. 2000-yilda – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan PISA tadqiqotida 32ta davlat orasida yuqori o'rinlardan birini qo'lga kiritgan Finlyandiya ta'limi hozirgacha namuna sifatida o'rganib kelinmoqda. Yanada ajablanarli jihati shundaki, o'lkaning barcha hududlari maktablaridagi o'quvchilar natijalari bir-biridan deyarli farq qilmagan. Yigirma yildan ortiq vaqt davomida bu davlatdagi 15 yoshli o'quvchilar PISA xalqaro baholash dasturida muntazam eng

yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda, bu esa maktab ta'limining yuqori sifatini namoyish etadi.

Fin ta'limi bo'yicha Jahon banki eksperti, Garvard universiteti professori Pasi Salberg, "Kelgusi o'n yil ichida 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 1,2 milliardga yaqin yoshlar mehnat bozoriga kiradi, ammo resurslar ulardan 300 millionga yaqinini ish bilan ta'minlash imkonini beradi, xolos. Taxminan milliardga yaqin bo'lgan bu yoshlarga nima taklif qilish mumkin? Menimcha, agar biz tinch taraqqiyotga erishmoqchi bo'lsak va bu yoshlar umid qiladigan narsaga ega bo'lishini istasak, biz bir-birimizdan o'rganishimiz kerak, bu oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir", deb yozadi [Sahlberg, 2015].

O'zbekistondagi tartibdan farqli ravishda Finlyandiyada asosiy tayanch o'quv reja va dastur asosida mahalliy o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Mahalliy o'quv dasturi maktab faoliyatining asosiy o'quv mazmunini belgilab beradi hamda strategik yo'nalish hisoblanadi.

O'quv dasturini tayyorlashda dars mashg'ulotlarini o'tish predmetli yoki integral bo'lishi mumkin. Integral ta'lim bizning o'quv dasturlardan farqli jihat hisoblanib, unda bir mavzu ma'lum vaqt (soat, kun, hafta) davomida bir nechta fan orqali o'qitiladi. Masalan, "Vatan" mavzusi ona tili, adabiyot, chet tilida til va tarbiya nuqtayi nazaridan, geografiya, tarix fanlarida joylashishi va o'tmishi, matematika, iqtisodiyotda mamlakatning real daromadlari, raqamlar bilan bog'liq jihatlari kabi.

Maktablar qayerda joylashgani, kimni o'qitayotganidan qat'i nazar bir xil bilim berishi va yaxshi bo'lishi kerak. Maktablarda turli ijtimoiy qatlamdagi bolalar o'qiydi va hech kim irqi, millati yoki qobiliyatiga qarab tabaqalanmaydi, ta'qib ham qilinmaydi. Tashrif buyurgan maktabimizda Siriya, Ukraina, Turkiya, Iroq va boshqa davlatlardan kelgan o'quvchilarni uchratdik, ular necha nafar bo'lishiga qaramasdan alohida fin va shved tillari bo'yicha dars mashg'ulotlari qo'yiladi. Mamlakatda 40 yil davomida yuzaga kelgan bunday tenglik muhiti o'qituvchi va o'quvchining maqsad va qarashlariga ta'sirini o'tkaza olgan. 1970-yillarda Finlyandiya ta'limida tub islohotlar olib borilib, nazorat tizimidan liberal tizimga o'tilgan. Maktablar o'zaro raqobatga kirishmaydi. Finlyandiyada eng yaxshi maktab uyga yaqin maktab deyishlari rost.

Finlyandiya maktablarining o'quv rejasiga ko'ra yillik umumiy yuklama 233 soatni tashkil qiladi, majburiy 224 va fakultativ 9 soat. Finlyandiya ta'limida ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tishda, 2-sinfdan 3-sinfga, 6-sinfdan ya'ni boshlang'ichdan yuqori 7-sinfga o'tishda chorrahali (perekryostniy) kompetensiyalar talablari o'quv dasturlarida aks ettirilgan va mana shu o'tish bosqichlarida alohida uzviylik, uzluksizlikka amal qilish bilan birga, o'quvchilar mana shu bosqichlarda sezilarli darajada qo'llab-quvvatlanadi, ayniqsa, o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarga alohida e'tibor bilan yondashiladi. Shuningdek, finlardan ta'lim sifatining yuqoriligi siri haqida so'ralganida, ular o'quvchilarni imtihonga emas, balki hayotga tayyorlashni va e'tiborni iqtidorlilarga emas, balki sust o'zlashtiruvchilarga qaratishini ta'kidlashadi va iqtidorlilar shundog'am hayotda o'z o'rnini topib olishlarini qayd etishadi.

O'quvchilarda fanlarga oid kompetensiyalardan tashqari o'quv dasturlarida barcha fanlar uchun 7ta transversal (tayanch) kompetensiyalarni shakllantirish ko'zda tutilgan. Bu – bilim va ko'nikmalar, qadriyatlar, munosabat va irodadan iborat yaxlit tushuncha. Qobiliyat – bilim va ko'nikmalarni vaziyatga qarab ishlata olish imkoniyatini anglatadi. Umumiy maqsad o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, demokratik jamiyat va barqaror hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Bu 7ta kompetensiya tillarni o'qitishda ham yo'nalish xususiyatlariga bog'liq ravishda shakllantiriladi.

1. Fikrlash va o'rganish qobiliyati – (T1);
 2. Madaniy-kommunikativ kompetensiya – (T2);
 3. Kundalik kompetensiya – (T3);
 4. Ko'p tomonlama savodxonlik – (T4);
 5. Raqamli savodxonlik kompetensiyasi – (T5);
 6. Mehnat faoliyat va tadbirkorlik ko'nikmalari – (T6);
 7. Barqaror kelajakka hissa qo'shish va qatnasha olish qobiliyati – (T7)
- (Finlyandiya davlat majburiy umumiy o'rta ta'lim dasturi, 2014/2021).

Finlyandiya yuqori sinf maktablari

Yuvyaskyulya Muuramesali 3 yillik oliy maktabi, ya'ni 9-sinf dan keyin ta'lim oladigan ta'lim dargohi. Maktab direktori Aki Puustinen tomonidan o'quvchilar bilan birgalikda taqdimot uyushtirildi. Muurame maktabi asoschilari Yuvyaskyulya shahrining tadbirkorlari ekan. Ushbu maktabda 200 nafar o'quvchiga 20 nafar o'qituvchi dars beradi. O'quvchilar asosiy fanlardan tashqari ko'proq tadbirkorlik, biznes sohasiga yo'naltirilgan bo'lib, ularda 21-asrda zarur bo'lgan barcha malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan imkoniyatlar mavjud. Maktab bitiruvchilari qiziqarli loyihalar va tadbirkorlik tashabbuslari ustida ishlashadi. O'quvchilarda fin va shved tillari rasmiy til, ya'ni ona tili sifatida, ingliz tili asosiy chet tili sifatida, fransuz va nemis tillari tanlov chet tili tarzida o'qitilmoqda. Malaka oshiruvchi o'qituvchilar darslarni yaqindan kuzatishdi va sharoitlarni o'z ko'zlari bilan ko'rib, qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Maktab rahbariyati ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni juda yaxshi yo'lga qo'ygan va o'quvchilar ta'lim davrida ham qo'shimcha daromad topish imkoniyatiga ega. Maktab uchun kirish imtihonlari yo'q, yil davomida 2 marta o'quvchilarga ta'lim beriladi, kuzda 1 haftalik va yozda 4 haftalik. Darslar "leaner-centered" tizimiga asoslangan, ya'ni o'qituvchi faqat yo'nalish berib fasilitator vazifasini bajaradi. O'qituvchiga nisbatan ingliz tilidagi "teacher" so'zini emas, balki "coach" ya'ni murabbiy so'zini ko'proq ishlatishar ekan. O'quvchilarga nisbatan umuman jazo yo'q, bunda "no punishment, but encouragement" (jazo emas, ruhlantirish, motivatsiya berish) usuliga tayanishadi. Majburiy fanlardan boshqa fanlarni o'quvchilar o'zlari tanlash huquqiga ega, maktabda maxsus va yagona ust-kiyim kiyish talabi ham mavjud emas.

Bu borada ham professor P.Salberg shunday yozadi: "Xalqaro ta'sirga va boshqalardan g'oyalar olishiga qaramay, Finlyandiya mavjud bo'lgan ta'lim tizimini qurishda o'z yo'lini yaratdi. Men buni "Fin yo'li" deb atayman, chunki u so'nggi yigirma yil ichida ta'lim tizimini isloh qilgan aksariyat mamlakatlar siyosatida hukmronlik

qilgan ta'limni isloh qilish global harakatidan farq qiladi. Finlyandiyadagi o'zgarish usuli hozirgi kunda amalda bo'lgan eng yaxshi an'ana va yondashuvlarni saqlab qolish va ularni boshqa manbalardan olingan innovatsiyalar bilan birlashtirishni o'z ichiga oladi. O'zaro ishonchni rivojlantirish, mustaqillikni oshirish va xilma-xillikka toqat qilish Finlyandiya maktablarida amalga oshirilayotgan yangi g'oyalarning bir qismidir [Sahlberg et al., 2015].

Fin ta'lim muassasalarida tillarning o'qitilishi: ko'p tillilik

Yevropada ko'pchilik 2 tilda, kerak bo'lsa 3 tilda bimalol gaplashadi, jumladan, finlar ham ko'p tilli hisoblanadi, ular fin, shved va ingliz tillarida muloqotga kirisha oladi. Amerikalik professor Vioroka Marian ko'p tilli odamlarning miyasini yillar davomida o'rganib keladi. Misol uchun, u bu borada o'zining "Tilning kuchi: ko'p tillilik" nomli kitobida bir nechta tilda so'zlashadigan odamlar faqat bitta tilda gapiradigan odamlardan farqli lingvistik, kognitiv va asabiy arxitekturaga ega, deb yozadi. Shunindek, u xotiraning zamonaviy nazariyalariga ko'ra, agar biror kishi ularni asl voqea bilan bir xil tilda takrorlashga harakat qilsa, xotiralarga kirish osonroq bo'ladi. Turli tillarda turli neyron aloqalar faollashadi va buning natijasida xotirada turli xil voqealar paydo bo'ladi. Bu ilmiy muhitda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Misol uchun, agar ikki tilli kishi ispan tilida o'rganganlari haqida ingliz tilida test topshirsa, yaxshi natija berishini ta'kidlaydi [Marian, 2023].

Finlyandiya maktablarida o'quvchilarga fin va shved tillari ona tili sifatida, ingliz tili esa majburiy chet tili sifatida, nemis va fransuz tillari ixtiyoriy chet tili sifatida o'qitiladi. Bunda maktab bitiruvchilari kamida 3ta tilni bilgan holda maktabni tugatishadi. O'z navbatida, quyida mazkur masalada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ajratilgan soatlar hajmi bilan tanishsak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning tasdig'i sifatida ularni e'tirof etishimiz mumkin bo'ladi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Finlyandiya umumiy o'rta ta'lim maktabi tayanch o'quv rejasida tillarga ajratilgan soatlar hajmi

O'quv fanlari	Sinflar									Jami
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Ona tili va adabiyoti	14				18			10		42
A1 – til ¹	2				9			7		18
V1 – til						2		4		6
Fakultativ fanlari					9					9
Darslarning minimal soni										224
Ixtiyoriy A2 – til ⁴								(12)		(12)
Ixtiyoriy B2 – til ⁴										(4)
*Manba – Finlyadniya tanyach o'quv rejası (2012-yildagi 422-sonli hukumat qarori) [Government Decree on the National Objectives for Education, 2012]										

¹ bu fan maktab dars jadvalida ko'rsatilishiga qarab o'qitiladi (fin, shved, sami kabi);

⁴ o'quvchi qaysi tilda ta'lim olishiga qarab, ixtiyoriy tanlagan A2 darajada tilni fakultativ fan sifatida yoki B1 darajada tilning o'rniga o'rganadi.

O'quvchi B2 darajada tilni fakultativ fan sifatida (9 soat) o'rganishi mumkin. A2 darajada (12 soat) va B2 darajada (4 soat) tillarni erkin tanlash asosida alternativ

tarzda, ajratilgan minimal vaqtdan tashqari mashg'ulotlar sifatida tashkil etilishi mumkin. Bunday holda ularni o'qitish, ushbu bandda belgilanganidek, fakultativ (9 soat) yoki B1 darajada (6 soat) til uchun ajratilgan dars soatlarining minimal vaqtdan foydalangan holda tashkil etiladi. Tilni o'rganishiga qarab o'quvchi ushbu B1 darajada (6 soat) ta'lim oladi yoki B1 darajada fakultativ fanlar (9 soat) hisobidan tahsil oladi.

Finlyandiya maktablarida A2 daraja uchun o'qiyotgan o'quvchi o'quv soatlarining eng kam vaqt ajratilganidan ortiq o'qitish hisobiga kamida 234 soatlik yillik darsni tashkil etadi. Mos ravishda B2 darajani o'rganayotgan o'quvchi uchun yiliga tegishli darslar soni kamida 226 soatni tashkil qiladi. A2 va B1 daraja uchun chet tillarini o'rganayotgan o'quvchilar uchun yiliga o'tiladigan darslarning umumiy soni kamida 238tani tashkil etadi, sababi o'qitiladigan vaqt minimal vaqtdan oshib ketadi.

Agar maktab o'quvchilarga A2 va B2 daraja uchun ixtiyoriy tillarni o'rgatish kerak bo'lsa, o'qitish tamoyillari tavsiflab berilishi va maktabda tilni o'qitish uchun qo'shimcha dastur soatlarida til dasturida ko'rsatilganidan ko'ra ko'proq vaqt sarflansa, buni asoslab, izohlash kerak bo'ladi.

Ko'rib turganimizdek, Finlyandiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida tillar ona tili va adabiyot fani sifatida, xorijiy til sifatida yoki ikkinchi davlat tili sifatida majburiy, ixtiyoriy yoki fakultativ ko'rinishda o'qitiladi.

Finlyandiya maktablarida ona tili sifatida fin tili, shved tili, sami tili, sigan tili kabi fanlar o'qitiladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

O'quvchilarning ona tili	"Ona tili va adabiyoti" fanidan o'quv dasturining nomlanishi	Ikkinchi davlat tili	
	<i>Majburiy komponent</i>	<i>Majburiy komponent</i>	<i>Ixtiyoriy komponent</i>
Fin tili	Fin tili va adabiyoti	Shved tili	–
Shved tili	Shved tili va adabiyoti	Fin tili	–
Sami tili	Sami tili va adabiyoti	–	Fin /shved tili
Sami tili	Fin/shved tili va adabiyoti, sami tili va adabiyoti	Fin tili/ shved tili	–
Sigan tili	Fin/shved tili va adabiyoti, sigan tili va adabiyoti	Fin tili/ shved tili	–
Imo-ishora tili	Imo-ishora tili va adabiyoti, imo-ishora tili foydalanuvchilari uchun fin yoki shved tili	–	Fin tili/ shved tili
Boshqa til	Boshqa ona tili (rus) to'liq o'qitiladi ikkinchi chet tili sifatida fin yoki shved	–	Fin tili/ shved tili

Yuqoridagi jadvalda ko'rganimizdek, Finlyandiyada ikkita davlat tili mavjud. Ona tili fin tili bo'lganlar uchun shved tilini, ona tili shved tili bo'lganlar uchun fin tilini rasmiy davlat tili sifatida o'rganishadi. Ona tili sami yoki sigan, rus tili bo'lganlar ham fin yoki shved tillarini o'rganishadi [Nasirov, 2021].

Finlyandiya maktablarida o'quvchilar uchun til ko'nikmalari va malakalarini

egallashda milliy madaniyat, albatta, hisobga olinadi. Maktab boshqa ona tilida so'zlashadigan va boshqa madaniyatga mansub bo'lgan o'quvchilar uchun o'rganish va muloqot qilish imkoniyatlarini yaratishi lozim. O'qituvchilar o'z fanini fin va shved tillarida bera olishi lozim. Barcha ko'rsatmalar umumiy o'rta ta'lim uchun o'quv dasturida belgilangan umumiy maqsad va prinsiplarga muvofiq bo'lishi ko'zda tutilgan. Maqsad – o'quvchilarni turli tillar va madaniyatlarni qadrlashga o'rgatish, ikki tili va ko'p tillilikni targ'ib qilish va shu orqali o'quvchilarning lingvistik bilimlari va metalingvistik ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat.

Dastur fin va shvedlarning milliy tillar maqomini va fin tilining aholining ko'pchilik qismi tili va ta'lim jarayonining asosiy tili sifatidagi maqomini tasdiqlaydi. Fin tili nafaqat o'rganish obyekti, balki turli fanlarni o'rgatish vositasi hamdir. O'qish va o'rganish orqali kerakli tushunish va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Hamkorlik "Fin tili va adabiyoti", "Fin tili va adabiyoti ikkinchi davlat tili sifatida" dasturlarini va ona tili va adabiyotini o'qitish bo'yicha boshqa dasturlarni amalga oshirish uchun juda muhimdir.

Yana bir holat borki, muayyan sinfda yoki ma'lum bir maktabda ta'lim qaysi tilda olib borilishi ta'lim to'g'risidagi qonun doirasida, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari qarorlari asosida belgilanadi. Bunda ta'lim tili ona tili va adabiyoti o'qitiladigan til hisoblanadi.

Ammo, agar kerak bo'lsa, ona tili va adabiyoti bo'yicha darslar va A1 tili dasturidagi darslar hukumat qarori qoidalariga muvofiq birlashtirilishi mumkin. Bunday holda o'qituvchilar umumiy o'qitiladigan barcha fanlarning kamida yarmini shu ona tili sifatida belgilangan tilda olib borishlari kerak. Bunda oila va maktab o'rtasidagi o'zaro kelishuv amalga oshiriladi.

Ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarni chet tili sifatida o'rganish xususida yuqorida qayd etdik. Bu holat o'quvchilarda ko'p tillilik, ko'p savodxonlik kompetensiyalarini shakllantiradi. Xelsinki universiteti dotsenti Raili Hildenning fikricha, finlarning tilini juda kam davlatlarda tushunishadi, shuning uchun ular dunyo aholisi gaplashadigan chet tillarini parallel ravishda yuqori darajada o'rgatishni maqsad qilib olganlar. Qolaversa, turli tillarda muloqot qobiliyatlari fanlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Uning fikricha, deskriptorlar bo'lajak chet tili o'qituvchilari uchun dars rejalariga havola qilish, o'quvchilar faoliyatini baholash va hisobot berish hamda til o'qitishning turli komponentlari haqida xabardorlikni oshirish uchun foydalidir [Lee & Hilden, 2021].

Oliy ta'lim Finlyandiyada 1980-yillardan boshlab keng ko'lamli islohotlar olib borilgan. Bu davrdan boshlab barcha o'qituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish va dars berish uchun magistrlik darajasini olishlari majburiy etib belgilangan. Har bir bitiruvchi, ya'ni bo'lajak pedagog bolalar psixologiyasi, pedagogika, defektologiya, o'qitish metodikasi kabi fanlarni mukammal egallashlari talab qilingan. 1990-yillarga kelib pedagoglar o'quv reja va dasturlarni tuzishda ishtirok etishi, o'qitishning samarali metodlarini o'zlari tanlashlari, o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini aniqlashlari va uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish ustida ishlashlari belgilangan. Finlyandiyada pedagoglik nufuzli kasb bo'lganligi sabab

professor-o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlariga, malaka oshirishlariga katta e'tibor qaratilgan. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limdagi islohotlarning asoschilari ham o'qituvchilar hisoblanadi.

O'qituvchilar malakasini oshirish yo'llaridan biri boshqa o'qituvchilar tajribasini o'rganishga asoslangan. Maktablar boshqa maktablardan o'rganishdan ham foyda ko'radi. Izolyatsiya, ya'ni o'qituvchini yoki maktabni ajratib qo'yish, barcha taraqqiyotning dushmanidir. Biz o'nlab yillar davomida maktablarimiz va maktablar o'rtasida o'qituvchilarning izolyatsiyasini yengib o'tishga harakat qildik, deb yozadi Professor Endryu Xargrivz [Hargreaves & Shirley, 2021].

Finlyandiya ta'lim tizimining eng katta muvaffaqiyatga erishish omillaridan biri – bu o'qituvchilardir. Ta'limning sifati o'qituvchining sifatidan yuqori bo'la olmaydi [Sahlberg, 2015].

Yuqori darajada, sifatli dars mashg'ulot o'tkazish uchun ularning maqomi va mustaqilligi, erkinligi to'liq ta'minlangan. Hozir kunda Finlyandiya 20ta universitet (shundan o'ntasi pedagoglar tayyorlaydi) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. O'quv dasturlarini tuzish huquqi va mas'uliyati mahalliy munitsipalitetlar va maktablar zimmasiga yuklangan [Rasulov, 2023].

Yuvyaskyulya universiteti xalqaro QS reytingida 299-o'rinni egallaydi. Ushbu OTMda asosan pedagog kadrlar tayyorlanadi va malakasi oshiriladi. Universitet 1934-yilda tashkil etilgan bo'lib, u bir vaqtlar o'qituvchilar gimnaziyasi hisoblangan. Mazkur oliy o'quv yurti 1863-yilda o'qituvchilar tayyorlash uchun birinchi fin tilidagi o'quv muassasasi hisoblangan. 1983-1984-yillarda universitet Finlyandiya birinchi marta muzeysunoslikni alohida fan sifatida o'qitishni joriy qilgan. Universitetda 7ta fakultetda 15000 nafar talabalarga 3000 nafardan ortiq professor o'qituvchilar dars berishadi. Mazkur oliygoh 300dan ortiq xorijiy universitetlar bilan talabalar va o'qituvchilar almashinuvini, ya'ni akademik mobillikni yo'lga qo'ygan. Universitet xalqaro talabalarga bir qator xizmatlarni taklif etadi. Universitetda 3ta asosiy qoidaga: ilmiy izlanish, sifatli ta'lim, jamiyatning rivojlanish ta'siriga amal qilinadi. Universitetda pedagogik jamoaning ishlash madaniyati ochiqlik, shaffoflik, o'zaro ishonch, sifatli ta'lim berish, integratsiya va haqgo'ylikka asoslangan.

Malaka oshirish jarayonida universitetning "Tillar va kommunikatsiya ta'limi" kafedrasida jamoasi bilan, shuningdek, kafedra mudiri, professor Marko Sitonen bilan uchrashib, kelgusidagi hamkorliklar xususida fikrlashildi. Marko Sitonen rahbarlik qilayotgan ushbu kafedrada 120 nafar professor-o'qituvchi turli fanlar, jumladan, ingliz, fransuz, nemis, rus, shved, ispan va xalqaro kommunikatsiya kabi yo'nalishlardan saboq berishar ekan. Mazkur kafedra o'qituvchilari Maria Ruohotie-Lyhty, Aleksey Lobskiy va Katya Mantyla va Ilkhom Khalimzodalar tomonidan Finlyandiya oliy ta'lim tizimini, o'quv jarayonini, o'quv dasturlari va boshqa yo'nalishlarda ma'ruzalar tinglandi. Mutaxassisliklar bo'yicha ishchi va fan dasturlari mazkur universitet professor-o'qituvchilari tomonidan mustaqil tarzda tuziladi. Professor-o'qituvchilar mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Oliyogohda yangi yo'nalish yoki fakultet ochilishi kerak bo'lsa, Ta'lim vazirligiga murojaat qilinar ekan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Yuvyaskyulya universiteti fakultetlaridan

biri aynan pedagoglarni tayyorlashga ixtisoslashgan. Maktabgacha ta'lim tashkilot (bog'cha)larida ishlash uchun bakalavr darajasi yetarlidir. Maktabda o'qituvchi bo'lish uchun talabgor magistratura bo'limini ham tugatgan bo'lishi kerak. Fan o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun esa bir yil (60 kredit) qo'shimcha ta'lim olish kerak bo'ladi. Pedagoglardan nafaqat yo'nalishi bo'yicha mutaxassis bo'lish, balki yuqori malakali o'qituvchi bo'lib yetishish ham talab etiladi. Universitet nafaqat joriy yilda, balki 40 yildan keyin ham o'z bilim va ko'nikmalarini yo'qotmagan, doimiy o'z ustida ishlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasini oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan.

Finlyandiyada abituriyentlarni pedagoglik mutaxassisligiga qabul qilish jarayoni bir nechta bosqichda amalga oshiriladi. Masalan, 2022-yili 1750 nafar abituriyentdan 89 nafarigina mazkur yo'nalishga qabul qilingan. Test natijalariga ko'ra yuqori ball olganlar to'g'ridan to'g'ri suhbatda ishtirok etishadi yoki kam ball olganlardan maxsus imtihondan o'tish talab qilinadi. Suhbat jarayonida talabgorning qiziqishi hisobga olinadi va 5 bosqichli qisqa savol-javoblar tashkil etiladi. Finlyandiyada ta'lim tizimi uchun qabul qilingan umummilliy dastur ustuvor va bosh mezon hisoblanib, pedagoglarga rasmiy majburiyat yuklamaydi. Har bir o'qituvchi qaysi metodlardan foydalanishni o'zi tanlaydi. Biroq o'qituvchilar uchun malaka oshirish majburiy hisoblanib, bir yilda 3 kunni tashkil etadi [Qo'ysinov, 2023].

Finlyandiyada pedagoglik nufuzli kasb bo'lgani sabab professor-o'qituvchilarning ta'limi va malaka oshirishiga katta e'tibor qaratilgan. Maktabgacha, maktab va oliy ta'limdagi bosh islohotchilar ham o'qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish, qo'shimchalar kiritish yoki tubdan o'zgartirish huquqiga ega. Finlyandiya ta'lim tizimiga milliy dastur ko'rsatma sifatida beriladi. Dasturning mazmun-mohiyatini boyitish, o'zgartirishlar kiritish, mavzulashtirish professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuvyaskyulya universiteti kutubxonasi har kuni talabalar bilan gavjum, o'qituvchi-yu talabalar o'tirib ishlashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan, Ushbu kutubxonada 70 nafar xodim faoliyat ko'rsatadi. E'tiborlisi shuki, kutubxonaning o'zida ilmiy izlanish olib borish uchun zamon talabiga mos barcha shart-sharoit mavjud: elektron kutubxona, kompyuterda ishlash zallari, kutubxonada oshxonaning mavjudligi shular jumlasidandir. Kutubxona qoshida ilmiy hamda ta'limiy xizmatlar markazi faoliyat yuritadi. Ushbu markazlar ilmiy izlanuvchilarga xizmat ko'rsatadi, xususan, tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ilmiy maqolalarini chop qilish bilan bog'liq texnik xizmatlarni ham taklif qiladi. Kutubxona hamma uchun ochiq va bepul. Markazda maqolalarni nashriyotlarda chop etish uchun maxsus shtat birligi ham mavjud ekan. Fakultetlar bo'yicha nashr rejasini bajarish holati nazorati ham ushbu xodim zimmasida. Kutubxonada oshxona ham joylashgan. Talabalar ovqatlanishi uchun davlat qo'shimcha subsidiya beradi, universitetlarga, masalan bir tushlik narxi 5, 6, yoki 10 yevro tursa-da, butun Finlyandiya bo'yicha talabalar 2,5 yevro to'laydi, qolgan qismini davlat qoplab beradi.

Xelsinki universiteti

Dunyoning THE hamda QS reytinglarida peshqadam hisoblangan, 2005-yil 1-avgustdan boshlab universitet Boloniya jarayonining Yevropa standartiga

muvofig bakalavrlar, magistrlar va doktorantlar tayyorlovchi Xelsinki universiteti Yevropa poytaxtlaridagi universitetlar tashkiloti a'zosi hamda Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi tarmog'ining bir qismi hisoblanadi. O'z navbatida, Xelsinki universitetiga O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bir guruh professor-o'qituvchilarining tashrifi ham amalga oshirildi. Tashrif chog'ida 400 yillik tarixning bir qismi, Finlyandiyadagi 40000ga yaqin talaba va 8100 nafar xodimlar faoliyat ko'rsatadigan 11ta fakultetdan iborat eng yirik universitet ekanligi hamda mavjud til markazining faoliyati haqida ma'lumotlar berildi. Universitetda 33ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda magistraturaning nofilologik bosqichlarida trilingual (3 tili) universitet sifatida fin tili ona tili, shved tili ikkinchi til hamda ingliz tilini majburiy tarzda hamda boshqa tillarni til markazi tomonidan o'qitib kelinar ekan. Umumiy hisobda markazda 17ta xorijiy til o'qitilib, CEFR Umumevropa tizimida barcha tillar talabalar tomonidan mukammal o'zlashtiriladi. Tashrif chog'ida markazning xorijiy tillarni o'qitish ochiq platformasi tanishtirildi hamda hamyurtlarimizga 3 daqiqalik fin tili qisqa kursi mohirona o'tib berildi. Universitet qoshidagi til markazi rahbatiyati bilan hamkorlikda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Toshkentdagi xalqaro Nordik universiteti bilan birgalikda kelgusida fin va shved tillarini o'qitish tizimini amaliyotga tatbiq etish masalasida hamkorlik o'rnatishga erishildi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi

Biz bu borada Yuvyaskyulya universiteti professori Marko Sitonen ilmiy rahbarligida yaqinda madaniyatlararo aloqa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish bo'yicha yozgan dissertatsiyasini himoya qilgan o'zbek yigiti Ilkhom Khalimzodadan kerakli ma'lumotlarni oldik.

Finlyandiyada Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bir pog'onali tizim hisoblanib PhD, ya'ni falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilish bilan yakunlanadi. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan ilmiy darajali xodimlar ikki toifaga ajraladi. Birinchi toifadagi xodimlar o'zlarining istiqbolli faoliyatini kelgusida ilmiy-tadqiqot ishlari ustida ishlash bilan shug'ullanishadi. Ya'ni, ular post doktorontura (post doctoral) ishlari bilan shug'ullanishsa, ikkinchi toifadagi ilmiy darajali xodimlar esa egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga bag'ishlashadi.

Bu davr mobaynida doktorant bepul ta'lim olish huquqiga ega bo'ladi. Lekin davlat tomonidan bu davr uchun stipendiyalar universitet, o'qishdagi yo'nalish sohasi, maxsus doktorlik dasturi va mavjud mablag' kabi bir qator omillarga qarab farq qilishi mumkin.

Finlyandiyada doktorantlar uchun to'liq moliyalashtirilgan pozitsiyalar, stipendiyalar (oyiga taxminan 1500 dan 2500 yevrogacha), stipendiyadan tashqari qo'shimcha mablag', doktorantlar xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun mablag', Finlyandiya yoki xalqaro fondlar grantlari kabi, yarim kunlik ish, soliq kabi moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Umuman olganda, Finlyandiyadagi doktorantlar moliyaviy yordamning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega va ular oladigan stipendiya miqdori individual sharoitlarga va ularning maxsus ilmiy dasturi yoki tadqiqot loyihasi uchun mavjud bo'lgan mablag'larga qarab farq qiladi.

Doktoranturaga kirish uchun eng birinchi qilinadigan muhim ish ilmiy rahbar roziligini olishdir. Bunda ilmiy rahbarga tadqiqotchi tomonidan 5-6 varaqdan kam bo'lmagan hajmda amalga oshirilajak tadqiqot asosnomasi (Research plan) yozib jo'natiladi va ishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Doktoranturaga qabul bir yilda ikki marta – aprel va avgust oylarida bo'ladi. Qabul qilingan doktorantga to'rt yil davomida universitetda bo'ladigan barcha darslarda ishtirok etishga ruxsat beriladi. Finlyandiyaning oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun zarur bo'lgan 240 kreditni to'plash talabi mavjud. Uning 40 krediti oflayn, ya'ni ma'lum auditoriya darslariga, 200 kredit esa doktorantning o'z ilmiy tadqiqoti ustida ishlash uchun ajratilgan. Aniqroq qilib aytganda, doktorant dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bilan bir qatorda o'z tadqiqoti yuzasidan maqolalar chop etishi, shuningdek, o'z navbatida universitetni tugatgan kurslari uchun ma'lum miqdordagi kredit (ECTS)ni to'plashi lozim. Finlyandiya doktorant "asosiy" va "tayanch" mutaxassislik fanlari doirasida ko'p sonli kurslar va seminarlardan o'tishi kerak bo'ladi. Asosiy mutaxassislik fanlari ilmiy-tadqiqot faoliyatining umumiy yo'nalishini belgilasa, qo'shimcha mutaxassislik fanlari esa doktorantning umumiy rivojlanishi uchun qanday kurslarni o'tashini ko'rsatadi. Doktorantura dasturi doirasida 4 yil mobaynida har bir doktorant mutaxassisligi bo'yicha o'rtacha 10 kursni o'tashi talab qilinadi [Khalimzoda, 2023].

Doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilish doktorlik darajasiga qo'yiladigan eng muhim talabdir. U fanga yangi ilmiy bilimlar orqali hissa qo'shadigan mustaqil, original tadqiqotlarni taqdim qilishi lozim. Dissertatsiyaning hajmi bo'yicha qat'iy qoidalar mavjud emas, ammo odatda 200-300 sahifani tashkil qiladi. Dissertatsiya kamida 3ta ilmiy tadqiqot maqolalaridan iborat va birlashtirish yoki kompilyatsiya tezisi shaklida yoki monografiya bo'lishi ham mumkin. Maqolalarni jamlab kompilyatsiya shakliga keltirilgan ushbu risolaning hajmi 50-60 sahifani tashkil etadi.

Finlyandiya doktoranturadan keyingi akademik karyer quyidagi besh bosqichdan iborat: post doktorantura (tutkijatohtori) doktorlik dasturi bitiruvchisi ilmiy faoliyatining davomi sifatida ilmiy karyer uchun mustaqil ishlash imkonini beradi. Ushbu bosqich odatda ikki yildan olti yilgacha kichik tadqiqotchi sifatida davom ettirilishi mumkin.

Professor assistenti (apulaiprofessori)

Bu pozitsiya Finlyandiya nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Ish beruvchi tomonidan assistent lavozimiga shartnoma odatda xodimning ish stajiga qarab ikki yildan besh yilgacha tuziladi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng, universitet ilmiy kengashi xodimning ishi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini baholaydi.

Dotsent (dosentti)

Ushbu unvonni olish uchun xodim belgilangan shartlar va bir nechta ilmiy nashrlarga ega bo'lishi, shuningdek, pedagogik mahorat va funksional vazifalar, o'z zimmasiga yuklatilgan xizmatlarni namoyish qila olishi lozim. Universitetda

dotsentlar odatda katta ilmiy xodimlar lavozimlarini egallashadi.

Bu lavozimlardan tashqari, universitet o'qituvchisi, katta o'qituvchi, ilmiy grant tadqiqotchisi kabi lavozimlarda ham karyerni davom ettirish mumkin.

Professor (professor)

Ushbu lavozimni egallash uchun nomzodlar xalqaro nufuzli jurnallarda ilmiy nashrlarga ega bo'lishlari, monografiya nashr ettirishi, Hirsh indeksi yuqori bo'lishi, nufuzli loyihalardagi ishtiroki, ilmiy-tadqiqot va o'qituvchilik faoliyatidagi xizmatlari namunali bo'lishi lozim. Professorlik uchun asosiy to'siq, universitetlarda ushbu lavozimlarning cheklanganligidir.

Finlyandiyadagi doktorantlar o'qishning yarmida oraliq litsenziya (litsensiaatti) darajasini olishlari mumkin. Litsenziya universitetda og'zaki himoya qilingan asl tadqiqotlarni o'z ichiga olgan qisqa ilmiy tezisni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu malakaga ega bo'lish tadqiqotchining ilmiy izlanishlari, ilmiy uslubi va fikrlashini mustaqil ravishda qo'llash qobiliyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, agar doktorant to'liq doktorlik ishi bilan ishlashga qaror qilmasa, ish bilan ta'minlash uchun ularning ta'lim darajasining rasmiy hujjatlari sifatida taqdim etadi. Litsenziya darajalari "tibbiyot doktori" yoki "texnologiya fanlari litsenziyasi" kabi fan/sohaga xos unvonlarga ega.

XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonning dunyoga ochiqligi, rivojlangan davlatlar bilan xalqaro munosabatalarni yo'lga qo'yishi, jumladan, ta'lim sohasida tajriba almashish, xorijiy ta'lim muassasalariga xizmat safarlariga borish zarurligi bejizga vazifa qilib qo'yilmaganligiga ishonch hosil qilindi.

O'zDJTuning malaka oshirishga borgan bir guruh professor-o'qituvchilari Finlyandiyadagi uzluksiz ta'lim muassasalariga tashrif buyurib o'quv jarayonlarini o'z ko'zlari bilan ko'rishdi, Yuvyaskyulya va Xelsinki universitetlarida samarali malaka oshirishga erishishdi, O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jahon banki ekspertlarining quyidagi fikrini xulosaga olish mumkin, ya'ni fin jamiyatining uni boshqa davlatlardan mutlaqo ajratib turuvchi, jumladan, ta'lim tizimidagi o'ziga xos farqli jihatlari kichik, etnik va madaniy jihatdan gomogen aholi (Finlyandiya aholisining atigi 10 foizigina fin emas) va aholi jon boshiga daromadlarning yuqori darajasi hisoblanadi. O'zbekistonda esa aholi nafaqat ko'p, balki milliy, madaniy va diniy jihatdan ham xilma-xil, daromad darajasi esa o'rtachadan pastdir.

Finlyandiya ta'limidagi o'quv jarayonidagi tenglik, o'quv dasturlari va darsliklardagi erkinlik, o'qituvchilarning dars o'tish metodlarini o'zlari tanlashi, oliy ta'lim muassasalaridagi haqiqiy kredit tizimi va mustaqilligi, eng asosiysi o'quvchi-talaba o'zi uchun o'qishi, izlanishi, o'z muammosini o'zi yechishga yoshlikdan odatlanishi, o'qituvchilar nazoratsiz darslarni sifatli olib borishi kabi o'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlar bor.

Finlyandiya uzluksiz ta'lim tizimida ko'p tillilik masalasi yaxshi yo'lga

qo'yilgan, muammolari yechilgan. Fin bo'lmaganlar uchun ham fin tili, chet tillarini o'qitish, finlar uchun shved tili, 3-sinf dan ingliz tili, yuqoriroq sinfdan fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarni o'qitish, oliy ta'limda tillarni o'qitish filologik va nofilologik yo'nalishda amalga oshirilishi va natijalari faqat sertifikat talab qilish orqali emasligini kuzatdik.

Finlyandiyada malaka oshirish jarayonida ma'ruzachilar va mas'ullarga yangilanayotgan O'zbekiston haqida, ta'lim tizimimiz, O'zDJTU haqida ma'lumotlar berildi, xabardor qilindi, yurtimiz bayrog'i Finlyandiya ta'lim muassasalarida hilpiradi.

Xizmat safari davomida 40 nafardan ortiq finlyandiyalik va shvetsiyalik mutaxassislar bilan uchrashildi, tashrif qog'ozlari almashildi. O'zDJTU haqida taqdimotlar tarqatildi, 23000 nafar talabaga 1007 nafar professor o'qituvchilar tomonidan 17ta xorijiy til birinchi va ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi ma'lum qilindi. Qolaversa, bizda ham fin va shved tilini chet tili sifatida o'qitishga qiziqish borligi aytiladi. Safar yakunlari bo'yicha barcha fakultetlar universitet professor-o'qituvchilariga Finlyandiya ta'lim tizimi haqida qator taqdimotlar qilindi, gazeta va jurnallarda maqolalar bilan chiqishlar qilinmoqda.

Finlyandiya ta'lim tizimini aynan joriy etib bo'lmazligi hammamizga ma'lum, xohish va imkoniyatlar o'rtasidagi farq bunga yo'l qo'ymaydi, shunday bo'lsa-da, safarga borib qaytgan har professor o'qituvchi o'zi uchun orttirgan tajribasi doirasida ma'lum ma'noda ijobiy o'zgarishlarga erishadi, deb hisoblaymiz.

Umuman aytganda, xizmat safaridan ko'zlangan maqsadga erishildi, yaratilgan sharoitlar natijasida orttirilgan tajribalar O'zDJTU o'qituvchilarining dars berish metodlarini yaxshilashga, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga, sifatli ta'lim berishga, o'qituvchi va talabalarni motivatsiya qilishga, Yangi O'zbekiston yoshlarining o'rganayotgan sohasining haqiqiy egalariga aylanishiga yaqin kelajakda salmoqli hissa qo'shadi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 124-son qarori. (2013-yil 8-may). *Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida*. <https://lex.uz/docs/-2165717>.
2. Daminov, X., & Qosimova, Z. (2020-yil 16-noyabr). Finlyandiya ta'lim siyosatining muhim tamoyili yoxud Fin maktablarining muvaffaqiyati nimada?. *O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA)*. <https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267>.
3. Finland's Basic Education Act. (1998). Basic Education Act, 628/1998. *Finlex Data Bank*. <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1998/en19980628>.
4. Government Decree on the National Objectives for Education. (2012). Government decree on the national objectives for education referred to in the Basic Education Act and in the distribution of lesson hours, 422/2012. *Finlex Data Bank*. <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/2012/en20120422>.
5. Hargreaves, A., & Shirley, D. (2021). *Well-being in schools: Three forces that will uplift your students in a volatile world*. USA: ASCD.
6. Council of Europe. (1995). *Common European Framework for Learning, Teaching, and Assessment of Languages*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.

7. Kartushina, Ye.A. (2017). Mnogoyazychiye v yazykovom landshafte gorodskoy sredy (na primere goroda Khel'sinki). *Vestnik V'yatskogo gosudarstvennogo universiteta*, 8, 71–75.
8. Khalimzoda, I. (2023). Russian speakers' acculturation in Finland and Latvia: The role of language and news media engagement. *PhD thes. commun. scien.* Jyväskylä: University of Jyväskylä.
9. Khanazarov, K.Kh. (2007). *K probleme razvitiya filosofii yazyka*. Tashkent: Izdatel'stvo "Uzbekistan".
10. Lee, J., & Hilden, R. (2021). A comparative analysis of objective statements in syllabi for English teacher education in Finland and South Korea. *Korean Journal of Comparative Education*, 31(2), 39–64. <https://doi.org/10.20306/kces.2021.31.2.39>.
11. Marian, V. (2023). *The power of language*. Louisiana: Pelican.
12. Nasirov, A. (2019-yil 18-dekabr). PISA va TALIS tadqiqotlari O'zbekistonga nima beradi?. "Ma'rifat" gazetasi.
13. Nasirov, A. (2020). Continuité de l'enseignement des langues étrangères dans le système de formation continue – défis et tâches. *Philology Matters*, 4, 190–202. <https://doi.org/10.36078/987654472>.
14. Nasirov, A. (2021). Davlat tilining o'qitilishi. "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metodik jurnali, 7, 3–5.
15. OECD. (2019). *PISA 2018 results (Vol. 1): What students know and can do*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/5f07c754-en>.
16. Qo'ysinov, Q., & Nosirov, A. (2021). Chet tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.
17. Qo'ysinov, O. (2023-yil 5-iyun). Kuchli ta'lim tizimi: Finlyandiya tajribasida qanday namoyon bo'lmoqda?. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 110(899), 5.
18. Qo'ysinov, O., & Hamroyeva, F. (2023-yil 20-iyun). Finlyandiya tajribasi: uzluksiz ta'lim muvaffaqiyati o'qituvchilar tayyorlash tizimiga bog'liq. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 122(911), 5.
19. Rasulov, B. (2023-yil 16-sentabr). Pedagog kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirishga ilmiy yondashuv. "Xalq so'zi" gazetasi, 194(8537), 4.
20. Sahlberg, P., Robinson, K., Ravitch, D., & Hargreaves, A. (2015). *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* (2nd. ed.). New York City: Teachers College Press.
21. Sormunen, M., Tossavainen, K., & Turunen, H. (2012). Parental perceptions of the roles of home and school in health education for elementary school children in Finland. *Health Promotion International*, 28(2), 244–256. <https://doi.org/10.1093/heapro/das004>.
22. Uoker, T. (2023). *Finlandiya ta'lim mo'jizasi* (B.Raxmonov (Tarj.)). Toshkent: "Global Book" nashriyoti.
23. G'aniyev, A. (2023-yil 5-iyul). O'zbekistonda Finlyandiya ta'lim tizimini joriy qilib bo'ladimi?. "Ma'rifat" gazetasi.

REFERENCES

1. Resolution No. 124 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2013, May 8). *On approval of the state education standard for foreign languages of the continuing education system*. <https://lex.uz/docs/-2165717>.
2. Council of Europe. (1995). *Common European Framework for Learning, Teaching, and Assessment of Languages*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
3. Daminov, X., & Kasimova, Z. (2020, November 16). What is the important principle of Finnish education policy or the success of Finnish schools?. *National Information Agency of Uzbekistan (UzA)*. <https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267>.
4. Finland's Basic Education Act. (1998). Basic Education Act, 628/1998. *Finlex Data Bank*.

- <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1998/en19980628>.
5. Ganiyev, A. (2023, July 5). Is it possible to introduce the Finnish education system in Uzbekistan?. *Newspaper of 'Enlightenment'*.
 6. Government Decree on the National Objectives for Education. (2012). Government decree on the national objectives for education referred to in the Basic Education Act and in the distribution of lesson hours, 422/2012. *Finlex Data Bank*. <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/2012/en20120422>.
 7. Hargreaves, A., & Shirley, D. (2021). *Well-being in schools: Three forces that will uplift your students in a volatile world*. USA: ASCD.
 8. Kartushina, Y.A. (2017). Multilingualism in the linguistic landscape of the urban environment (using the example of the city of Helsinki). *Bulletin of Vyatka State University*, 8, 71–75.
 9. Khalimzoda, I. (2023). Russian speakers' acculturation in Finland and Latvia: The role of language and news media engagement. *PhD thes. commun. scien.* Jyväskylä: University of Jyväskylä.
 10. Khanazarov, K.Kh. (2007). *On the problem of philosophy of language*. Tashkent: Publication House of 'Uzbekistan'.
 11. Koysinov, Q., & Nasirov, A. (2021). *National curricula of continuous education of the Republic of Uzbekistan in the field of foreign language*. Tashkent: State Inspection of Education Quality Control.
 12. Koysinov, O. (2023, June 5). A strong education system: how it is manifested in the experience of Finland?. *Newspaper of 'New Uzbekistan'*, 110(899), 5.
 13. Koysinov, O., & Hamroyeva, F. (2023, June 20). The Finnish experience: the success of continuing education depends on the teacher training system. *Newspaper of 'New Uzbekistan'*, 122(911), 5.
 14. Lee, J., & Hilden, R. (2021). A comparative analysis of objective statements in syllabi for English teacher education in Finland and South Korea. *Korean Journal of Comparative Education*, 31(2), 39–64. <https://doi.org/10.20306/kces.2021.31.2.39>.
 15. Marian, V. (2023). *The power of language*. Louisiana: Pelican.
 16. Nasirov, A. (2019, December 18). What will the PISA and TALIS studies give to Uzbekistan?. *Newspaper of 'Enlightenment'*.
 17. Nasirov, A. (2020). Continuity of foreign language teaching in the continuing education system – challenges and tasks. *Philology Matters*, 4, 190–202. <https://doi.org/10.36078/987654472>.
 18. Nasirov, A. (2021). Teaching of the state language. *Scientific-Methodological Journal of Language and Literature Education*, 7, 3–5.
 19. OECD. (2019). *PISA 2018 results (Vol. 1): What students know and can do*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/5f07c754-en>.
 20. Rasulov, B. (2023, September 16). A scientific approach to the training of pedagogic personnel and improving the quality of education. *Newspaper of 'People's Word'*, 194(8537), 4.
 21. Sahlberg, P., Robinson, K., Ravitch, D., & Hargreaves, A. (2015). *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* (2nd. ed.). New York City: Teachers College Press.
 22. Sormunen, M., Tossavainen, K., & Turunen, H. (2012). Parental perceptions of the roles of home and school in health education for elementary school children in Finland. *Health Promotion International*, 28(2), 244–256. <https://doi.org/10.1093/heapro/das004>.
 23. Walker, T. (2023). *Finnish educational miracle* (B.Rakhmanov (Transl.)). Tashkent: Publishing House of 'Global Book'.